

RESPUBLIKAMIZDA MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA TRANSPORT TARMOQLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**Hotamova Malika Akmal qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti

Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti

Geografiya kafedrası

Geografiya va iqtisodiy bilim

asoslari yo'nalishi 3-bosqich talabasi

malikahotamova04@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamiz hududida transport tarmoqlarining yillar davomida qay darajada rivojlanganligi tahlil qilingan holda transport tarmoqlarining har bir turida amalga oshirilgan yangiliklar va islohotlar haqida batafsil ma'lumot beriladi

Kalit so'zlar: transport, avtomobil transporti, temiryo'l transporti, havo transporti, quvur transporti birinchi temir yo'l, Farob stansiyasi, Zakaspiy (Turkmanboshi-CHorjo'y), Toshkent-Orenburg temir yo'li, Toshshaharyo'lovchitrans, iqtisodiy rayon

O'zbekistonda transport sohasi 1990-yillarda endi rivojlanish pallasida bo'lgan O'zbekiston sobiq Sovet Ittifoqining bir qismi bo'lganligi sababli, transport tizimi asosan respublika ichidagi va tashqi aloqalarni ta'minlash maqsadida rivojlangan. 1924-yilda O'zbekiston SSRi tashkil etilgach, transport infrastrukturasi shakllantirish jarayoni boshlandi. Temiryo'l tizimi O'zbekistonda transport tarmog'ining muhim qismi bo'lib, mamlakatning sharqiy va g'arbiy qismlarini bog'lovchi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Temiryo'l transporti hududiy industrializatsiya va shaharlararo aloqalarni kuchaytirishga xizmat qilgan. O'zbekistonning ilk mustaqillik yillarida bu ko'rsatkichlar saqlanib turgan.. O'zbekistonda temir yo'llarni qurish o'zining ma'lum tarixiga ega. Mamlakat hududida birinchi temir yo'l izlari 1888-yilda Farob stansiyasidan Samarqandgacha qurilgan bo'lib, u Zakaspiy (Turkmanboshi-CHorjo'y) temir yo'lining davomi edi. Uning qurilishi keyinchalik davom ettirilib 1899-yili Andijon va Toshkent shahrigacha etqazildi. 1906-yilda Toshkent-Orenburg temir yo'li qurildi. O'rta Osiyo jumladan, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida o'tgan asrning 30-yillarda qurilgan uzunligi 1400 km dan ziyod bo'lgan Turksib (Turkiston-Sibir) temir yo'lining ishga tushishi o'z davrida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1952-1955 yillarda CHorjo'y-Qo'ng'iro't temir yo'li ishga tushdi. Mazkur yo'l Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonini respublikaning boshqa hududlari bilan bog'ladi. 1962-yilda Navoiy-Uchquduq temir yo'lining qurilishi Markaziy Qizilqumdagi boy mineral resurslardan foydalanish imkoniyatini yaratdi. 1972-yilda ishga tushgan 410 km li Qo'ng'iro't-Beynov temir yo'li O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni dan Qozog'istonga, Rossiyaning markaziy, janubiy va Ural mintaqalariga hamda Kavkaz hududlariga chiqish imkonini berdi. Avtomobil transporti O'zbekistonda aholi uchun eng keng tarqalgan transport turi bo'lib, u ichki reyslar va shaharlararo aloqalarni ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. 1960-yillardan boshlab yo'l infratuzilmasi rivojlana boshladi, ko'plab yirik avtomobil yo'llari qurildi. O'zbekiston transport tizimida shahar yo'lovchi transport xizmati alohida o'rin tutadi. Respublika shaharlarida aholini belgilangan marshrutlarda tashiydigan jamoat transporti-avtobus, tramvay, trolleybus, yer osti transporti (metropolitan), yengil avtomobil transporti (taksi) xizmat ko'rsatadi. O'zbekistonda XX asr boshlariga qadar ot-ulov asosiy transport vositasi bo'lgan. 1901-yilda Toshkentda temir yo'l izida otlar sudraydigan bir vagonli dastlabki shahar transporti, 1912-yilda 1- tramvay ishga tushirildi. 1926-yili respublikada muntazam avtobuslar yordamida yo'lovchilar tashish boshlangan edi (dastlabki shaharlararo avtobuslar qatnovi 1906-yilda Farg'ona-Marg'ilon marshrutida yo'lga qo'yilgan edi). Poytaxtda "Toshshaharyo'lovchitrans" Davlat uyushmasiga qarashli 11 ta avtobus parki, 2 ta tramvay va 3 ta trolleybus deposi, 5 ta taksopark mavjud. 1977-

yil Toshkentda metro qurilib ishga tushurildi. Hozirda metropolitenning 3 ta yo'nalishi (Chilonzor, O'zbekiston, Yunusobod) va 29 stansiyasi mavjud. Respublika havo transporti-fuqaro aviatsiyasi tarixi 1920-yillardan boshlangan. 1924-yil 20-mayda uzunligi 800 km bo'lgan Toshkent Avliyoota (Jambul)-Pishpek (Bishkek)-Olmaota marshrutida dastlabki yo'lovchilar tashish reysi amalga oshirilgan edi. O'zbekistonda birinchi neft quvuri 1908-yilda ishga tushganini ko'ramiz. O'sha yili Chimyon neft konidan Oltiariq neftni qayta ishlash zavodiga 20 kmlik quvur tortilgan edi. Keyinchalik mamlakatda yangi-yangi neft va gaz konlarining topilishi quvur transporti rivojlanishiga asos bo'la boshladi. Endilikda birgina Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlariga neft konlaridan jami 228,5 km. lik quvurlar o'tqazilgan. Suv transporti. 1950-yil Amudaryoning o'rta oqimida Surxondaryo viloyati hududida Termiz daryo porti tashkil etilgan. 1952-yilda esa Xo'jaylida kema tamirlash zavodi qurilgan. Amudaryoning quyi qismida daryo sohillarida turli yillarda Sharlavuq, To'rtko'l, Beruniy, Qorator, Xo'jayli bandargoh (pristan)lari qurilgan. Har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va aholining hayot darajasini ko'tarishda transportning o'rni va mohiyati beqiyosdir. Transport sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalarini, mamlakatning turli hududlari o'rtasidagi mahsulot almashinishi, uning tashqi savdosini ta'minlaydi. Yangi hududlarni o'zlashtirishdan oldin ularga transport yo'llari o'tkaziladi. Hozirgi zamon shaharlari hayotini transportsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Transportning mudofaa ahamiyati ham juda kattadir. Transport moddiy ishlab chiqarishning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Uning rivojlanish darajasi mamlakat iqtisodiyotiga, unda ishlab chiqarish kuchlarining joylashish va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Transport avvalo, ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'lib, uning ishlab 44 chiqarish xarajatlari va tovar narxiga ta'siri yuqoridir. Tarmoqning rivojlanishi ta'biy resurslarni o'zlashtirish, sanoat va agrar soha integratsiyasi chuqurlashishi hamda milliy xo'jalikning jahon bozoriga qo'shilishining shart-sharoitlarini yaxshi laydi. Transportning texnikaviy, savdo-sotiq va madaniy aloqalarda ham ahamiyati katta. Transport mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida muhim shart-sharoit va omil lardan biri hisoblanadi. Bu sohada (aloqa bilan birga) YAIMning 9,8 foizi yaratilmoqda, iqtisodiyotda band bo'lganlarning 1,5 foizi mehnat qilmoqda. Transport sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlari keyingi yillarda birmuncha turg'un xarakterda bo'lib, bu sohadagi investitsion faollikning pasayishi, tarkibiy siljishlarning sekinlashishi, xususiylashtirish va tadbirkorlikning rivojlanish darajasi hamda umuman iqtisodiy o'sish sur'atlari va xorijiy investitsiyalarning jalb etilish darajasi ni pastligi bilan izohlanadi. Mamlakat transport tarmog'i temir yo'l, avtomobil, havo, quvurlar va daryo suv yo'llaridan iborat. Transportning barcha turlari yordamida respublikada har yili xalq xo'jaligi uchun zarur bo'ladigan turli-tuman yuklar va yo'lovchilar tashiladi. O'zbekistonda yiliga barcha transport turlari vositasida 1387.3 mln tonnadan oshiq yuk va 6988.0 mln yo'lovchi tashilmoqda (2013 y). O'zbekiston transportining moddiy-texnika bazasi mustaxkamlanib va takomillashib bormoqda. Respublikaning transport turlari ichida yuk tashish bo'yicha temir yo'l transporti etakchi rol o'ynaydi. Temir yo'l transporti. Sovet xo'kimiyati yillarida temir yo'llarning uzunligi 3 marta, yuk tashish oboroti 20 marta ortdi, passajir tashish 1940 yilga nisbatan 2 marta ko'paydi. Odatda transport degan da uning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi. Havo transporti O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin 1992 yilda "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi tashkil etildi. Respublikaning ayniqsa xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy, turistik aloqalarini yo'lga qo'yishda mamlakatning o'z havo transporti muhim rol o'ynaydi. "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi xilma-xil tipdagi havo transporti vositalariga ega. Jumladan, unda qishloq xo'jalik ishlariga mo'ljallangan "AN-2", mahalliy yo'llarda 46 qatnaydigan "AN-24", "YAK-40", xalqaro yo'llarda qatnaydigan "IL-76", "IL-62", "IL-86", "TU-154", "A-310", Boeing kabi samolyotlar bor. Vertolyot parkida esa "MI-2", "MI-8", "KA-26" kabi mashinalar bo'lib, ulardan mamlakat muassasalari, meteorologiya, geologiya-qidiruv ishlarida keng foydalaniladi. "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi tarkibida 12 ta zamonavuy aerovokzal (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus, Termiz, Andijon, Namangan, Navoiy, Urganch, Farg'ona, Qarshi, Qo'qon shaharlarida) bor.

Zarafshon, Uchquduq, Sirg'ali, SHah risabz, Sariosiyo, Qo'ng'iro't, To'rtko'l, Mo'ynoq shaharlaridagi aeroportlar viloyat markazidagi aeroportga qaraydi, YAK-40 va AN-24 samolyotlarini qabul qilishga moslashtirilgan. Toshkent, Samarqand va Termiz aeroportlari xalqaro maqomga ega. Hozirda havo transporti jami yuk va yo'lovchi tashish hajmida salmoqli ulushga ega bo'lmasada, shoshilinch, qimmatbaho va tez ayniydigan yuklarni tashishda, yo'lovchilarga tez va sifatli xizmat ko'rsatishda katta rol o'ynamoqda. "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi MDHning deyarli barcha yirik shaharlari va 20 dan ortiq xorijiy davlatlar (Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya, Niderlandiya, Isroil, Hindiston, Turkiya, BAA, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreya, Xitoy, Malayziya, Tailand va b.) bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmoqda. Birgina 2007 yilda Toshkentdan Qohira (Misr), Milan (Italiya) va Sochi (Rossiya) shaharlariga yangi aviareyslar ochildi. Bugungi kunda jami 60 dan ortiq marshrut yo'lga qo'yilgan. Hozirda kompaniyada 350 dan ortiq samolyot mavjud bo'lib, "Boing", A-310 kabi eng zamonaviy samolyotlar bilan birga IL-86, IL-76, TU-154, RJ-85 samolyotlari xizmat ko'rsatyapti. Keyingi 6-7 yilda fuqaro aviatsiyasining infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida jami 1 mlrd 200 mln AQSH dollariga yaqin investitsiya amalga oshirildi. Bu mablag'lar yangi texnika sotib olish, uchish jarayonlarini boshqarishni zamonaviylashtirish, xalqaro yo'lovchi terminallarini qurish va ta'mirlash, uchish-qo'nish liniyalarini, vokzallarni ta'mirlash kabilarga ishla tildi. O'zbekistonda havo transportini rivojlantirish va yangilash doirasida G'arbda ishlab chiqarilgan samolyotlarga texnik xizmat ko'rsatish majmui barpo etilib, aero portlar rekonstruksiya qilindi, O'zbekistonning butun hududida MDHda havo hara katini boshqarishning eng yaxshi tizimlaridan biri sifatida e'tirof etilgan navigatsiya 47 tizimi takomillashtirildi. Bugungi kunda samolyotlar parkidan faqatgina «Boing» va «Airbus» kabi jahonda yetakchi hisoblangan ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy havo kemalari joy olgan. Bortiga O'zbekiston bayrog'i o'rnatilgan samolyotlar Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikaning 40 dan ortiq mamlakatiga parvoz qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Isayev A.A. "Transport geografiyasi". Ushbu uslubiy qo'llanma transport geografiyasi fanining nazariy va amaliy masalalariga oid bilimlar berishga mo'ljallangan.
2. "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga oid ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.
3. "Transport logistikasi". Ushbu o'quv-uslubiy majmua transport logistikasi fanining nazariy va amaliy jihatlarini yoritadi.
4. "O'zbekistonning transport majmui va tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi". Ushbu materialda O'zbekistonning transport tizimi va tashqi iqtisodiy aloqalari haqida ma'lumotlar berilgan.
5. Usmonov M.R. "O'zbekiston Respublikasi transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Zamonaviy transport tarmoqlari". Ushbu ma'ruza matnida O'zbekistonning transport turlari va tashqi iqtisodiy aloqalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.
6. Choriyev.A "Transport geografiyasi" fanidan ma'ruzalar to'plami
8. "Transport geografiyasi". Ushbu uslubiy qo'llanma transport geografiyasi fanining nazariy va amaliy masalalariga oid bilimlar berishga mo'ljallangan.

9. "Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti". Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyot yo'nalishida o'qiyotgan bakalavr va magistr'larga mo'ljallangan.

10. "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga oid ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.